

**TURIZM SOHASIDA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHDA MALAYZIYA VA SINGAPUR TAJRIBASIDAN
FOYDALANISH****Annotatsiya**

Mamlakatda turizm sohasini keng isloh qilish, turizm sanoatining mamlakat yalpi ichki mahsulotida ulushini o'tirish va aholi daromadlarini, yashash farovonligini ko'tarish maqsadida turizm sohasini yanada rivojlantirishda, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydanish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan ushbu tadqiqot ishimizda Malayziya va Singapur mamlakatlarining turizm sanoati bilan yaqindan tanishdik.

Kalit so'zlar: Turizm sanoati, YaIMda turizmni ulushi, Malayziya turizmi, Singapur turizmi, turizm tadbirkorlik, turistik tushumlar miqdori.

Абстракт

Считаем целесообразным использовать лучший опыт зарубежных стран в дальнейшем развитии туристической сферы в целях комплексного реформирования туристической сферы в стране, увеличения доли туристической отрасли в валовом внутреннем продукте страны, повысить доходы и благосостояние населения. В связи с этим в нашей исследовательской работе мы познакомились с туристической отраслью Малайзии и Сингапура.

Ключевые слова: Индустрия туризма, доля туризма в ВВП, туризм Малайзии, туризм Сингапура, предпринимательство в туризме, объем доходов от туризма.

Abstract

We believe that it would be appropriate to use the best experiences of foreign countries in the further development of the tourism sector in order to comprehensively reform the tourism sector in the country, increase the share of the tourism industry in the country's gross domestic product, and increase the incomes and well-being of the population. In this regard, in our research work, we got to know the tourism industry of Malaysia and Singapore.

Key words: Tourism industry, share of tourism in GDP, Malaysian tourism, Singapore tourism, entrepreneurship in tourism, amount of tourism receipts.

KIRISH: Turizm, dunyo mamlakatlari milliy iqtisodiyotining bir tarmog'i sifatida, boshqa bir tomondan esa, turizm hududlari va turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarining (mehmonxonalar, kurortlar, turoperatorlar, restoranlar va h.k) manfaatlarini, doimiy va barqaror daromad kelishi mumkin bo'lgan bir qator oldida turgan masalalarni hal qilishda samarali va juda foydali bo'lishi mumkin, yana bir tomondan, xizmatlarning oxirgi iste'molchilari – O'zbekiston va dunyoning boshqa bir mamlakatlaridan kelgan sayyohlarning manfaatlarini himoya qilishi, turistik xizmatlardan bahramand bo'lishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

Mamlakatda turizmni rivojlantirish, milliy bozor ichida emas, balki jaxon bozoriga chiqish, jaxon bozoro iste'molchilarini talablarini o'rganish xalqaro maydonda o'zining nufuzi va jozibadorligini ko'rsatish xorijiy turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va sohaga tadbqiq etish maqsadga muvofiq deb belgiladik. Turizm sanoatida rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish orqali, mamlakat miqyosida turizm sanoatini rivojlantirishda foydalanish mumkin bo'lgan modellarni,

strategiyalarni qo'llash va mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish tajribalarini ortirishga imkon beradi.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar aholisining yarmidan ko'pi ta'tillarini uydan tashqarida o'tkazadilar, ularning aksariyati boshqa bir mamlakatlarga sayohat qilishadi va aholining bu toifaga mansub qismi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa davlatning turizm sanoatini nazorat qilish va tartibga solish mas'ulligini, shu bilan bir qatorda turizm tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar oldida turgan vazifalarni tezkorlik bilan hal qilishga undaydi. Ushbu sanoat orqali mamlakatning nafaqat iqtisodiyoti balki, hududlarning ijtimoiy, madaniy saviyasi ham bir muncha oshadi. Tashrif buyuruvchi turistlarga mamlakatning boy madaniy, tarixiy urf-odatlarini, an'analari va marosimlarini taqdimotini keng yoyib berish turistlar uchun axborot sifatida xizmat qilsa, ushbu holatni yuzaga chiqaruvchi hududlar uchun moddiy va nomoddiy resurslarni chuqurroq o'rganish, uslubiy manbalarini yaratish imkonini beradi.

Bir qator mamlakatlarda kirib kelayotgan valyuta tushumining asosiy qismini, turizm orqali kirib kelayotgan valyuta oqimlari tashkil qiladi, bu esa mamlakatda ushbu sanoatning jadal rivojlanishidan dalolat beradi.

Turkiya, Misr va Xitoy kabi mamlakatlarda turizm sanoati, mamlakatda tushadigan barcha valyuta tushumlarining 25% dan 30% gacha yetkazib beradi.¹

Turizmning, ayniqsa xalqaro turizm orqali keladigan daromadning ko'pligi tufayli ko'plab mamlakatlar turizm infratuzilmasini shakllantirishda faol ishtirok etmoqdalar. Buni raqamlarda ko'radigan bo'lsak 2023 yil yakunlari bo'yicha jahon yalpi ichki mahsulotida turizm sektorining ulushi 9,1 % miqdorida o'z hissasini qo'shdi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xususan, N. A.Arshaluysovich [1] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarning turizm sanoatidan kelib tushadigan valyuta oqimlari tadqiq qilingan. M.Jaafar, A.R.Abdul-Aziz, S.A.Maideen, S.Z.Mohdlarning [2] ilmiy tadqiqotlarida Malayziyaning turizm sanoati tadqiq qilingan. B.McKercher [3] tadqiqotlarida turizm sohasidagi tartibsizlik, tarmoqni tashkil etuvchi turli e'telementlararo murakkab munosabatlarni tushuntirishga yordam beradi. R. Russell, B.Foulkner [4] tadqiqotlarida esa global va mintaqaviy bozorda turizmni rivojlantirishda tadbirkorlik nazariyalarini tadqiq etgan. A.S.Kuskov, Yu.A.Djaladyan [5] o'zlarining adabiyotlarida turizmning asosiy elementlari va komponentlariga alohida e'tibor qaratganlar. Yu.V.Kudryavtseva [6] o'zining tadqiqotida Rossiya turizmi haqida batafsil malumot berib o'tgan. W.D.Bygrave, A.Zacharakis [7] ushbu olimlarimiz tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyatining keng imkoniyatlari ochib berilgan. R.Butlarning [8] ishlarida turistik hududlarning hayotiylik siklini tadqiq etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning maqsadlari uchun analitik tahlil va sintez kabi umumiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tahlil orqali tadqiqot ob'ekti ular orasidagi tafovutlar orqali o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi. Shu asosda ma'lumotlarni tizimlashtirish mumkin. Sintez - bu aniq g'oya va voqe'likning to'liq tasvirini yaratish uchun elementlar, belgilar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash jarayonidir. Shu o'rinda, ilmiy manbalar tahlil qilinadi, umumlashtirish kabi nazariy bilimlarning boshqa usullari ham qo'llaniladi.

Tahlil natijalari. Malayziya turizm sanoati va o'ziga hos betakrorligi bo'yicha dunyoda turizm sanoatida yetakchi mamlakatga aylandi. Malayziyada ushbu sanoatning rivojlanishida mamlakatning strategik yo'l xaritasini tuzib faoliyat yuritishi, sohada ko'plab imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Ma'lumotlar va statistik tahlillar, ularni modellarga solish orqali kelgusi yo'l xaritalarini tuzib oladilar, bu esa aniq statistik manbalarga asoslanadi.

Dastlabki yillarda Malayziya turizm sanoatida kichik va o'rta mehmonxona tadbirkorlariga (SMME) unchalik e'tibor berilmagan. Mehmonxona egalari va menejerlari xususiyatlari va ularning raqobat maydonida omon qolish imkoniyatlarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Malayziyada kichik va o'rta mehmonxonalar egalari yoki menejerlarining ko'pchiligi erkaklarni tashkil etgan, ularning aksariyati o'rta va katta yoshli menejerlardan iborat bo'lganlar, ma'lumot


¹ Никогосян, Акоп Аршалуйсович. Экономические аспекты выездного туризма в страны восточной европы Специальность Санкт-Петербург 2000. 16с.

darajasiga ko'ra turizm sohasiga bog'liq bo'lmagan o'rta va oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassisliklarni tashkil etgan. 1997-1998 yillarda yuz bergan moliyaviy inqirozdan keyin mamlakat aholisi o'ziga bo'lgan ishonch va mustaqil shaxs xususiyatlari bilan o'z bizneslarini yo'lga qo'ya boshlaganlar. Shaxsiy moliyaviy resurslarning yetarli emasligi oqibatida, mehmonxonalar nomerlarining soni 50 dan oshirish imkoni bo'lmagan, barpo etilgan mehmonxonalarni moliyalashtirish to'liq kreditlar evaziga qoplangan. Dastlabki yillar davomida mehmonxonalar faoliyatiga axborot texnologilarini qo'llash darkorligini anglab yetdilar va sohada yetarlicha bilimga ega bo'lmaganlari ularning zaif tomonlari ekanligini aniqlab oldilar.

Malayziya hukumati dastlab 1959 yilda Savdo va sanoat vazirligi huzurida birinchi bor turizm departamentini tashkil etdi va sohaga jalb qildi. Shunga qaramay bu bo'limning ayrim turdagi imkoniyatlari cheklanganligi sohani rivojlanib ketishiga o'z ta'sini o'tkazgan. 1972-yil 10-avgustda qabul qilingan Parlament qonuniga binoan Turizmni rivojlantirish korporatsiyasini (TDC) tashkil etishi bilan turizm sohasiga katta qiziqish bildirdi. O'sha yili Malayziya 21-Tinch okeani Osiyo sayohatlar uyushmasini (PATA) tashkil qildi. Kuala-Lumpurda yillik konferentsiya, bu Malayziya uchun turizmga agressiv jalb qilish platformasi sifatida tan olingan¹.

Shundan beri turizm sanoatining mamlakatga qo'shayotgan hissasi yildan yilga oshib bormoqda. Malayziyada sayohat va turizm bozori kelgusi yillarda yanada sezilarli darajada o'sishi kuzatilmoqda. 2024 yil oxiriga kelib ushbu sohadagi daromad 5,862,00 mil AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bundan tashqari, soha daromadi 2029 yilga borib 6,889.00 mil AQSH dollarga yetib, yillik o'sish sur'ati 3,28 % da o'sishi kutilmoqda².

London, Buyuk Britaniya: Butunjahon sayohat va turizm Kengashi (VTTC) 2024 iqtisodiy ta'sirni tadqiq qilish (EIR) Malayziyaning sayohat va turizm sektori uchun muhim o'sish yili bo'lishi mumkinligini prognoz qildi, uning iqtisodiy hissasi, bandligi va mahalliy tashrif buyuruvchilar xarajatlari bu yil barcha rekordlarni yangilashi kutilmoqda. Xalqaro sayyohlar 2023-yilda Malayziyaga qilgan sayohatlari davomida 31,386 mil AQSh dollardan ortiq mablag' sarflagan. 2019 yilda bu ko'rsatkich 183 mil AQSh dollarni tashkil etgan. Bu raqam 2020 yilda koronavirus sayohatlari cheklovlari va xalqaro tashrifchilarning kamayishi tufayli 2,699 mil AQSh dollargacha kamaydi. 2021 yilga kelib 98 foizga kamaydi va 51,0 ming AQSh dollarni tashkil etdi. 2022-yilda xalqaro turizm tushumlari o'sib 59,9 mil AQSh dollarni tashkil etdi. Xalqaro turizm daromadi 2023 yilda 151,5 mil AQSh dollar bilan tiklandi, bu 2019 yilga nisbatan 17 foizga kam (pandemiyagacha)³.



1-rasm. 2019-2023 yillarda Malayzida sayyohlar tomonidan sarflangan harajatlar miqdori(mlrd AQSh dol)⁴


¹ Mastura Jaafar, Abdul Rashid Abdul-Aziz, Siti Aishah Maideen, Siti Zaleha Mohd. *Entrepreneurship in the tourism industry: 2011, Pages 827-835*

² <https://www.statista.com/outlook/mmo/travel-tourism/malaysia#analyst-opinion>

³ <https://wtcc.org/news-article/malaysias-travel-and-tourism-sector-projected-to-exceed-previous-heights>

⁴ <https://www.statista.com/outlook/mmo/travel-tourism/malaysia#analyst-opinion> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1998–2008 yillardagi rekordga asoslanib, Malayziyaga kelgan sayyohlar soni 300 foizga (5,5 milliondan 22,0 milliongacha), turistik tushumlar miqdori esa 478 foizga (8580,5 million kishidan) oshganini ko'rsatdi. 2019 yilda xalqaro tashrif buyurganlar soni 26,1 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilning oxiriga kelib bu ko'rsatkich keskin tushib ketish holati kuzatildi yani 4,33 million kishi tashrif buyurgan bo'lib o'tgan yilga nisbatan 83,4 foizga kamaymoqda. Bu esa COVID-19 epidemiyasining tarqalishi bilan bog'liq. Keyingi yillarga sohaga yana etiborni kuchaytirish orqali, 2023-yilda Malayziyaga 20,4 million xalqaro sayyoh tashrif buyurdi. Hozirgi kunga qadar tashrif buyuruvchilarning soni jihatidan 2014-yilda rekord darajasiga chiqib, tarixda eng ko'p qayd etilgan tashrif buyuruvchilar soni 27,4 million kishiga yetdi. Malayziya osiyodagi eng ko'p tashrif buyuruvchi mamlakatga aylandi.



2-rasm. 2019-2023 yillarda Malayziyaga tashrif buyurgan sayyohlar soni¹

Yuqorida qayd qilingan statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki Malayziya turizm sanoati hozirga kunga kelib, dunyodagi eng yetakchi mamlakatlar qatoriga kirgan. Sanoatda e'tibor qaratilayotgan jihatlarini ko'radigan bo'lsan tadbirkorlik turizmi orqali eng ko'p valyuta oqimi kirib kelmoqda horijiy ko'plab olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarida ham bu o'z aksini topmoqda. Malayziya turizm sanoatida eng ko'p daromad keltiradigan yo'nalishlaridan biri bu ta'til paketlarini taqdim qilish orqali keladi. Turizm xizmatlarini savdosida onlayn savdolar yetakchilik qilmoqda.

McKercher tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda² turizm sohasidagi tartibsizlik, tarmoqni tashkil etuvchi turli eteamentlararo murakkab munosabatlarni tushuntirishga yordam beradi. Shuningdek 2004 yilda Rassel va Folkner³ ilmiy ishlarida tarmoqqa dinamik va doimiy o'zgaruvchan sanoat sifatida ta'rif berilib, o'zgarishlarning asosiy agenti tadbirkorlarning idroki va qobiliyatlarining uyg'unligi va biznesning kengayishi bilan imkoniyatlarni aniqlashdagi tasodifiy hodisalarga to'g'ri keladi deb aytib o'tishgan. 1998 yilda tadqiqotchilar Lyuis va Grin tomonidan shunday hulosaga kelindiki, ma'lum bir yo'nalishdagi turizm evolyutsiyasi o'zgarishlar agenti va rejalashtiruvchi sifatida ishlaydigan tadbirkorning roli bilan belgilanadi. Biroq, Rassel va Folkner (2004) tadbirkorlarning hal qiluvchi roli yetarlicha baholanmagan va to'liq tushunilmagan, shuning uchun sanoatdagi tadbirkorlik tadqiqotlari noto'g'ri ekanligini ta'kidlaydi⁴.

¹<https://www.statista.com/outlook/mmo/travel-tourism/malaysia#analyst-opinion> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

² Mc Kercher B, Hui LL.2001. The Omnibus Survey. pp 5-11

³ R. Russell. B.Foulkner. et al. Entrepreneurship, chaos and the tourism area lifecycle, 2004, Pages 556-579

⁴ Lewis, R.,Green,S.,1998.Planning for stability and managing chaos: the case of Alpine Ski Resorts. In: Laws,E.,Faulkner, B.,Moscardo,G.(Eds.), Embracing and Managing Change in Tourism International case Studies.Routledge, London, pp. 138–160

Olimlar tomonidan o'rganishlarning natijasida shuni xulosa qilishdiki, tadbirkorning turizmdagi ishtiroki, tadbirkorning qobiliyati va boshqaruvchilik hussusiyatiga, bilim darajasiga, atrof-muhit holatiga, mamlakatda sohaning muayyan rivojlanish bosqichiga bog'liq deb hisobladilar.

Barr (1990) tomonidan o'rganilgan tadqiqotlarda shuni ta'kidlab o'tdiki mahalliy tadbirkorlarni sohaga ko'proq jalb qilish turizm destinatsiyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, migrant tadbirkorlar esa soha rivojlanishining keyingi bosqichlariga ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, tadbirkor uning shaxsiy hususiyatlari o'rganilishi turizmni rivojlanishida o'rganilishi kerak bo'lgan muhim o'lchov sifatida tan olingan¹.

Shu o'rinda o'zining qisqa muddatli rivojlanish tarixiga ega bo'lgan mamlakatlardan biri Singapur respublikasini turizm sanoatini o'rganib chiqish o'rinli deb hisobladik. Singapurda turizm sanoati asosiy tarmoq bo'lib mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Kichkina Qizil nuqta sifatida tanilgan Singapurda turizm yillar davomida izchil o'sib bormoqda. Bu jonli shahar-davlat o'zining ajoyib madaniy xilma-xilligi, go'zal shahar manzarasi va nafis oshxonasi tufayli butun dunyo bo'ylab sayohatchilarning e'tiborini tortdi. 2019 yilda turistlarning mamlakatga tashrifi rekord darajasini qayd qilib, mamlakat aholising uch barobariga yani, 19 milliondan ortiq xalqora tashrif buyuruvchilar qabul qilgan. 1965 yilda mustaqillikka erishgandan beri qayd etilgan eng yuqori natija hisoblandi. Bu esa nafaqat tashrif buyuruvchilar balki mamlakat iqtisodiyotiga valyuta oqimini ko'paytirishga hissa qo'shdi.

Dunyoning boshqa bir mamlakatlari kabi Singapur turizm sanoatida ham Covid-19 pandemiyasining ta'siri kuzatildi. 2023 yilga kelib bu ta'sir bir muncha qisqarib Singapurga kelgan xalqaro sayyoxlar soni 13,6 million turistni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar esa pandemiyaning ta'siridan chiqqanligi haqida xabar beradi.


Osiyo mamlakatlari o'rtasida Singapur o'zining havo yo'llari orqali tranzit mamlakat biri hisoblanadi, Osiyo va dunyoning qolgan qismi o'rtasida tranzit nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. U Tailand, Indoneziyadagi Bali va Malayziya kabi xalqaro sayyohlar orasida mashhur bo'lgan bir qancha yo'nalishlar bilan o'ralgan. Shunga qaramay, Singapur o'zini o'zi tashrif buyurishi kerak bo'lgan sayyohlik yo'nalishi sifatida bozorga chiqarishga muvaffaq bo'ldi va ko'rfazdagi bog'lar va kazinolar va istirohat bog'lari bilan maqtanadigan integratsiyalashgan kurortlar kabi noyob shahar tajribalarini taklif qilish orqali turistlarni mamlakatga qaytib kelishlarini ta'minladi.

Singapur dunyoning eng qimmat shaxarlaridan bo'lganligi sababli unga qo'shni mamlakatlar Indoneziya, Singapurda tashrif buyuruvchilar uchun eng yirik oziq-ovqat bozorini taklif qiladi, bundan keyin Xitoy va Malayziya tashrif buyurgan turislar uchun turar joy, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Singapurda turar joylarning nisbatan qimmatligi va asosiy turistik maskanlarning ixcham joylashganligi, sayyohlarga qisqa vaqt ichida obyektlarni ko'rish imkoniyatini osonlashtiradi.

Mamlakatda turizm sanoati 2023 yil uchun qilingan iqtisodiy prognoz ko'rsatkichlarini ham ortda qoldirib, kuchli ko'rsatkich bilan sanoat qayta tiklandi va barqarorlikni namoyish etdi. Xalqaro tashrif buyuruvchilarning soni (IVA) 2023-yilda 13,6 million nafarga yetdi². Daromadlarning o'sishiga asosiy sabablardan biri bo'lib, sog'lom va xilma-xil mehmonxonalar, ayniqsa, bozorlarni o'z ichiga olgan joylar, sayohatchilar uchun qulay va yaxshi variantlarni taqdim etadi. Bunday mehmonxonalar nafaqat zamonaviy infratuzilma, balki mahalliy madaniyatni va an'analarni o'z ichiga olgan tajribalar taqdim etadi. Bozorlar esa o'z navbatida mehmonlarga mahalliy oziq-ovqatlar, hunarmandchilik, va boshqa madaniy boyliklar bilan tanishish imkoniyatini beradi, bu esa tushumning o'sishiga sabab bo'ladi.


¹ Barr, T. From quirky islanders to entrepreneurial agnates: the transition of the Whitsundays. 1990. 26–32

² <https://www.stb.gov.sg/content/stb/en/media-centre/media-releases/Singapores-tourism-sector-posts-strong-recovery-in-2023-exceeds-forecasts-for-tourism-receipts.html>



3-rasm. 2019-2023 yillarda Singapur Respublikasiga tashrif buyurgan sayyohlar soni¹

Mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlar tomonidan qilinadigan sarflarga to'xtaladigan bo'lsak, 2023-yilda turizmdan tushgan tushum 27,2 mlrd dollarga yetdi. Bu ko'rsatkich 2019 yilda 20,3 mlrd AQSh dollariga teng bo'ldi, 2020 yilda esa 5,35 mlrd dollar miqdorida pul tushumi kelib tushgan, 2021 yilda pandemiyaning ta'siri kuzatilib 4,1 mlrd dollarga tushish holatlari kuzatilgan, 2022 yilda 11,79 mlrd dollar sarflagan holda qisman tiklanish holatlari kuzatildi.



4- rasm. 2019-2023 yillarda Singapur Respublikasiga tashrif buyurgan sayyohlar tomonidan sarflangan pul mablag'lari (mlrd AQSh dollar)²

Mamlakat miqyosida turistlarning soni ko'payishi bilan bir qatorda 2024 yilning birinchi chorak ma'lumotlariga ko'ra 8,1 mlrd AQSh dollari miqdori sarf qilgan, ushbu ko'rsatkichdan ko'rinib turibdiki yil yakunlari ko'ra turistlarning kelishi va sarflanadigan pul mablag'lari 20,3 mlrd AQSh dollari miqdorida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Turistik tushumlarning asosiy tarkibiy qismi mamlakatdagi diqqatga sazovor joylar, tungi klublarga kirish to'lovlari, kunduzgi sayoxatlar va dam olish tadbirlariga sarflanadigan xarajatlardan kelib tushadi.

Turistlarni jalb qilish uchun Singapur eng jozibador joylarini ko'rib chiqadigan bo'lsak o'zining innovatsion arxitekturasini, yashil maydonlari, xilma-xil aholisi bilan mashxur bo'lgan, eng asosiysi barcha turistlarning ehtiyojlariga monand turistik xizmatlarni taklif qila olishi mamlakatga tashrif buyuruvchilarning sonini oshishiga olib keladi. Barcha yoshdagi va turli xil maqsaddagi turistlar uchun dam olish maskaniga aylanib bo'lgan.

¹<https://roadgenius.com/statistics/tourism/singapore> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

²<https://roadgenius.com/statistics/tourism/Singapore/> Singapore ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadval

Singapur Respublikasida zamonaviy turizm ob'ektlari haqida ma'lumot

№	Turistik obyektning zamonaviy nomlanishi	Joylashuvi	Tasviri	Xarakterli
1.	"Gardens by the Bay"	18 Marina Gardens Dr, Singapur 018953		Belgilangan maqsad - shaharda yashil va o'simlik dunyosini ko'paytirish orqali hayot sifatini yaxshilash.
2.	"Sentosa Island"	Janubi-g'arbiy okrug (Singapur)		Sentosa oroli - Bu qiziqarli orol kurorti oilalar va sarguzasht izlovchilar uchun juda mos keladi.
3.	"Singapore Zoo and Night Safari"	80 Mandai Lake Rd, Singapur 729826		Singapur hayvonot bog'ining kengaytmasi o'rniga, Tungi Safari aslida alohida hayvonot bog'i bo'lib, uning hajmi kattaroq va hayvonlarning kengroq assortimentini o'z ichiga oladi.
4.	"Singapore Botanic Gardens"	1 Cluny Rd, Singapore 259569		YuNESKOning Butunjahon merosi ob'ekti, yam-yashil landshaftlar, yurish yo'llari va dunyodagi eng katta orkide to'plamini taqdim etadi.
5.	"Merlion Park"	1 Fullerton Road One Fullerton, Singapur 049213 Singapur		Ark shahar manzarasining ajoyib ko'rinishini taqdim etadi, bu uni sayohatchilar uchun sevimli joyga aylantiradi.

Umuman olganda, butun dunyo bo'ylab turizm sanoatida kichik va o'rta korxonalar bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar qoniqarli holatda. Biroq, yana bir qator o'rganilishi mumkin bo'lgan salohiyatli tadqiqot yo'nalishlarini tadqiq etish kerak deb hisoblaymiz. Olimlar Dewhurst va Horobin (1998)¹ tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlariga ko'ra, turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini olib borayotgan korxonalar iqtisodiy foydani maksimal darajada oshirish ularning faoliyatiga turtki emas deb ta'kidlab o'tganlar. Shunday qilib, turizm tadbirkorlari foyda yoki o'sishga yo'naltirilgan emas.

Hozirgi vaqtga kelib turizm tadbirkorlik faoliyatini olib borish nafaqat tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi subyektlar, o'z o'rnida davlat ham ushbu yo'nalishni rivojlantirishdan manfaatdor hisoblanadi va shuni aytish kerakki turizm sanoatida foydalaniladigan mavjud resurslarni saqlab

¹ Dewhurst, P. and Horobin, H. (1998) Small business owners. In R. Thomas (ed.) The Management of Small Tourism and Hospitality Firms (pp. 19–38). London: Cassell

qolish, yanada takomillashtirishga qatilgan.Olib borgan ilmiy izlanishlarimizdan kelib chiqib Malayziya va Singapur Respublikalarining turizm industriyasida olib borgan mexanizmlari va ularning natijasida hozirgi kunda erishgan natijalarini analitik tahlil o‘tkazish orqali ko‘rishimiz mumkin. (2-jadval).

2-jadval

Turizmda yetakchi mamlakatlar Malayziya va Singapur Respublikalarining 2023 yilda turistik omillari jozibadorligining analitik taxlili¹

	Ko‘rsatiladigan xizmat turlari	Malayziya	Singapur
1	Tashrif buyuruvchilar soni	20,4 mil	13,6 mil
2	Jozibador hududlar soni	66 ta	100 ta
3	Transpotr xizmatlari narxi (1 kmga)	Mahalliy avt. 0.50-1 dollar	Mahalliy avt. 0,15-1,30 dollar
		Shaxarlararo poezdlar 2-10 dollar	Shaxarlararo poezdlar 1,10-2,50 dollar
		Taksi 2-15 dollar	Taksi 2,24-3,75 dollar
4	Mehmonxonalar soni	822 ta	286 ta
5	To‘rt yulduzli memonxonalar soni	441 ta	77 ta
6	Besh yulduzli mehmonxonalar soni	140 ta	49 ta
7	Mehmonxonalar o‘rtacha narxi	3 ★ 30 dollar	3 ★ 116 dollar
		4 ★ 47 dollar	4 ★ 182 dollar
		5 ★ 70 dollar	5 ★ 373dollar
8	Turistlarni mamlakatga sarflaydigan moliyaviy mablag‘lari	36 mlr dollar	27,2 mlr dollar
9	Ovqatlanish narxlari	5,7 dollar	11,36 dollar

Xulosa va takliflar. Dunyo miqyosidagi mamlakatlarning turizm sanoatini tartibga solish va rivojlanishi tahlili turizm imkoniyatlarining yangi bir qirralarini ochib bermoqda. Turizm sanoatining davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab quvvatlash, davlatning ushbu sanoatni imkoniyatlarini kengroq ishlatish maqsadida xuquqiy-meyoriy bazasini shakllanishi, byudjet investitsiyalari va soliq imtiyozli berish orqali amalga oshirish mumkin deb o‘ylaymiz.

Turizm sohasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmining ilg‘or xorijiy tajribasini O‘zbekistonda joriy etishga quyidagi ilmiy taklif va xulosalarni beramiz:

- barcha mamlakatlar foydalanadigan iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, ijtimoiy, ekologik va madaniy, ma‘rifiy usullaridan foydalanishda vositalarni sohani rivojlantirishda to‘g‘ri tanlay olish;
- O‘zbekistonning jozibador turistik hududlarining bir nechta xorijiy tillardagi veb saytlarini yaratish va doimiy yangilanib borilishi;
- kelgusida turizm industriyasining rivojlanishi bilan bir qatorda turizm sanoatidan kelib tushadigan valyuta oqimlarini tadqiq qilish;
- turizm tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish tendensiyalari tahlil qilish, prognoz qilish, doimiy marketing va boshqarish bo‘yicha muntazam ilmiy tadqiqotlar olib borish;
- ekstremal turizm turlarining havfsizlik chora-tadbirlari kuchaytirish va iste‘molchilarni jalb qilish;
- sohadagi turistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida zamonaviy so‘nggi rusum texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

¹ Turli sohaga doir ilmiy manbalarni o‘rganish asosida muallif ishlanmasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Никогосян, Акоп Аршалуйсович. Экономические аспекты выездного туризма в страны восточной европы Специальность 08.00,05 - Экономика и управление народным хозяйством АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Санкт-Петербург 2000.
2. Mastura Jaafar, Abdul Rashid Abdul-Aziz, Siti Aishah Maideen, Siti Zaleha Mohd. Entrepreneurship in the tourism industry: Issues in developing countries.international Journal of hospitality Management. Volume 30, Issue 4, December 2011, Pages 827-835.
3. Mc Kercher B, Operational Issues in Marketing Research: An Example of the Omnibus Tourism Survey.January 2001.
4. R. Russell. B.Foulkner. et al. Entrepreneurship, chaos and the tourism area lifecycle, Annals of Tourism Research Volume 31, Issue 3, July 2004, Pages 556-579
5. Кусков А.С., Джаладян Ю.А. Основы туризма. - М.: КНОРУС, 2011. - 392 с.
6. Кудрявцева Ю.В. Государственно-частное партнёрство при формировании государственной политики в области туризма: российский и зарубежный опыт. Вестник.№5, декабрь 2012. -С.180-201
7. William.D.Bygrave, Andrev.Zacharakis.Entrepreneurship, 3rd Edition. John Wiley & Sons, 7 февр. 2014 г. – 593p
8. Richard Butler. Tourism destination development: the tourism area life cycle model. Received 01 Jan 2024, Accepted 14 Feb 2024, Published online: 11 Mar 2024.
9. Lewis, R.,Green,S.,1998.Planning for stability and managing chaos: the case of Alpine Ski Resorts. In: Laws,E.,Faulkner, B.,Moscardo,G.(Eds.), Embracing and Managing Change in Tourism International case Studies.Routledge, London, pp. 138–160.
10. Barr, T.,1990.From quirky islanders to entrepreneurial agnates: the transition of the Whitsundays. Journal of Tourism Studies 1 (2), 26–32.
11. Dewhurst, P. and Horobin, H. (1998) Small business owners. In R. Thomas (ed.) The Management of Small Tourism and Hospitality Firms (pp. 19–38). London: Cassell
12. <https://www.statista.com/outlook/mmo/traveltourism/malaysia#analyst-opinion>
13. <https://wtcc.org/news-article/malaysias-travel-and-tourism-sector-projected-to-exceed-previous-heights>
14. <https://www.stb.gov.sg/content/stb/en/media-centre/media-releases/Singapores-tourism-sector-posts-strong-recovery-in-2023-exceeds-forecasts-for-tourism-receipts.html.html>